

PEDAGOGIK JARAYONDA PSIXODIAGNOSTIK METODLARNI QO'LLASH: PSIXOMETRIK MEZONLAR ASOSIDAGI BAXOLASH TIZIMI

Madaminova Odinaxon Muqimjon qizi

*Kokand universiteti Andijon filiali, boshlang'ich
ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi.*

Mahammadjonova Maftuna Doniyorbek qizi

*Kokand universiteti Andijon filiali, boshlang'ich
ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi.*

Annotatsiya: Ushbu maqoladapedagogik jarayonda psixodiagnostik metodlarning qo'llanishi va ularni ilmiy asoslashda psixometrik mezonlarning o'rni yoritiladi. Talimda o'quvchini to'g'ri baxolash jarayoni diagnostika vositalarining ishonchlilik, validlik, obektivlik, sezgirlik va standartlashganlik kabi ilmiy talablarga mos bo'lishini taqozo etadi. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning psixologik rivojlanishini baholash, ularning qobiliyatlari va individual xususiyatlarini aniqlash jarayoni psixometrik mezonlarga asoslangan diagnostika metodlaridan foydalanilgandagina samarali natija beradi. Maqolada psixometrik mezonlar mazmuni, ularning pedagogik baholash tizimidagi ahamiyati va diagnostika natijalarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish yo'llari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari o'qituvchilar uchun diagnostika vositalarini ilmiy asosda tanlash va qo'llash bo'yicha metodik tavsiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Annotatsiya: Данная статья освещает применение психодиагностических методов в педагогическом процессе и роль психометрических критериев в их научном обосновании. В системе образования процесс правильного оценивания учащегося требует, чтобы диагностические инструменты соответствовали таким научным требованиям, как надежность, валидность, объективность, чувствительность и стандартизированность. В начальном образовании оценивание психологического развития учащихся, выявление их способностей и индивидуальных особенностей дает эффективные результаты только при использовании диагностических методов, основанных на психометрических критериях. В статье раскрывается сущность психометрических критериев, их значение в педагогической системе оценивания и пути интеграции результатов диагностики в учебный процесс. Полученные выводы служат основой для разработки методических рекомендаций по научно обоснованному выбору и применению диагностических инструментов учителями.

Annotatsiya: This article explores the use of psychodiagnostic methods in the pedagogical process and the role of psychometric criteria in their scientific

justification. In education, the process of accurately assessing a student requires that diagnostic tools meet scientific requirements such as reliability, validity, objectivity, sensitivity, and standardization. In primary education, the assessment of pupils' psychological development, identification of their abilities, and recognition of their individual characteristics yield effective results only when diagnostic methods based on psychometric criteria are applied. The article analyzes the essence of psychometric criteria, their significance in the pedagogical assessment system, and ways to integrate diagnostic results into the educational process. The findings serve as a basis for developing methodological recommendations for teachers on the scientifically grounded selection and use of diagnostic tools.

Kalit so'zlar: psixodiagnostika, psixometrik mezonlar, ishonchlilik, validlik, obyektivlik, sezgirlik, standartlashganlik, pedagogik baholash, boshlang'ich ta'lim, diagnostik metodlar, o'quvchi rivoji, metodik tavsiyalar.

Ключевые слова: психодиагностика, психометрические критерии, надежность, валидность, объективность, чувствительность, стандартизированность, педагогическая оценка, начальное образование, диагностические методы, развитие учащихся, методические рекомендации.

Keywords: psychodiagnostics, psychometric criteria, reliability, validity, objectivity, sensitivity, standardization, pedagogical assessment, primary education, diagnostic methods, student development, methodological recommendations.

Ta'lim jarayonida o'quvchini har tomonlama baholash va uning psixologik rivojlanish darajasini aniqlash pedagogik faoliyatning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. A. Anastazi (1988) ta'kidlaganidek, diagnostik vositalar ilmiy asosga ega bo'lmasa, ta'lim jarayonida noto'g'ri qarorlar qabul qilinishi ehtimoli oshadi. Shuning uchun psixodiagnostik metodlarning ishonchliligi va validligi, ya'ni psixometrik mezonlarga mosligi pedagogik faoliyatda katta ahamiyatga ega. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning bilish jarayonlari, ijtimoiy-emotsional rivoji, qobiliyati va shaxsiy xususiyatlarini baholash o'qituvchidan ham nazariy bilim, ham to'g'ri tanlangan diagnostik vositalarni talab etadi (E. G'oziev, 2010). Mazkur maqola psixometrik mezonlarning mazmuni va ularning ta'lim jarayonidagi ahamiyatini ilmiy manbalar asosida ochib beradi. E. G'oziev (2010) ta'kidlaganidek, boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning psixik rivojlanishi murakkab va bosqichma-bosqich kechadigan jarayon bo'lib, uni to'g'ri baholash o'qituvchining metodik tayyorgarligiga va qo'llaniladigan diagnostik vositalarning ilmiy asoslanganligiga bevosita bog'liqdir. Muallifning fikricha, bu yosh davrida bolaning bilish jarayonlari — idrok, xotira, tafakkur, diqqat va nutq — tez sur'atlarda shakllanadi va rivojlanadi, shu bois pedagogik jarayonni to'g'ri yo'naltirish uchun ularni aniq diagnostika qilish zarur.

G'ozievning ilmiy yondashuvda bolalarning psixologik rivojlanishini baholash faqatgina umumiy kuzatuv bilan cheklanib qolmasligi, balki ilmiy asoslangan psixodiagnostik metodlar orqali ishonchli ma'lumot olish kerakligi ta'kidlanadi. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'qituvchisi har bir o'quvchi haqida puxta diagnostik xulosa chiqara olsagina, ta'lim jarayonini individuallashtirishi va zaruriy pedagogik yordamni to'g'ri belgilashi mumkin. Shuningdek, E. G'oziev bolalar psixikasini o'rganishda testlar, suhbat, kuzatuv, loyihalash usullari kabi metodlar qo'llanishini samarali deb hisoblaydi, ammo ularning psixometrik mezonlarga mos kelishi pedagogik amaliyot uchun alohida ahamiyatga ega ekanini alohida ta'kidlaydi. Chunki ishonchsiz yoki validligi past bo'lgan testlar o'quvchining haqiqiy rivojlanish darajasini aks ettirmasligi mumkin. Muallifning ta'kidlashicha, maktabga ilk bor kirgan o'quvchilarda individual farqlar juda kattadir. Shuning uchun o'qituvchi psixodiagnostika natijalariga tayangan holda, har bir o'quvchi uchun alohida yondashuvni belgilashi, ular o'rtasidagi rivojlanish sur'atlarini muntazam kuzatib borishi pedagogik jarayon samaradorligini oshiradi. Shunday qilib, G'ozievning ilmiy qarashlari psixodiagnostik metodlarni psixometrik mezonlar asosida qo'llash zarurligini nazariy va amaliy jihatdan asoslab beradi.

Psixodiagnostika — shaxsning ruhiy sifatlarini o'lchash va tahlil qilishga qaratilgan ilmiy faoliyat bo'lib, u ta'lim jarayonida quyidagi vazifalarni bajaradi. Psixodiagnostika — shaxsning ruhiy sifatlarini o'lchash va tahlil qilishga qaratilgan ilmiy faoliyat bo'lib, u ta'lim jarayonida quyidagi vazifalarni bajaradi. O'quvchilarni bilish qobiliyatini baxolash; talim jarayonini individuallashtirish; individual rivojlanish xususiyatlarini aniqlash; o'quv motivatsiyasini aniqlash va o'quvchilarni qiyinchiliklarini aniqlash shular jumlasidandir. Shu o'rinda Boshlang'ich sinflarda kuzatuv, suhbat, testlar, loyihali usullar va diagnostik topshiriqlar eng ko'p qo'llaniladigan metodlar hisoblanadi.

Psixometrik mezonlarning nazariy asoslari: A. Anastazi, S. Messik, R. T. Kettel kabi psixologlar testlarni baholashda asosiy psixometrik mezonlar quyidagilar ekanini ta'kidlaydi

1. . Ishonchlilik (Reliability) Test natijasining barqarorligi va takror o'lchashda bir xil natija berish qobiliyati. Misol: Raven matritsa testi takror o'lchashlarda yuqori barqarorlik ko'rsatadi.
2. Validlik (Validity) Test nimani o'lchashi kerak bo'lsa, aynan o'sha xususiyatni o'lchashidir. Misol: diqqat testlari diqqatning davomiyligini o'lchashi lozim.
3. Obyektivlik. Natija o'lchovchiga bog'liq bo'lmaydi. Ya'ni ikki o'qituvchi bir testni baholaganda natija bir xil chiqishi kerak.
4. Sezgirlik (Sensitivity) Test kichik farqlarni ajrata olishi kerak. Misol: 6–7 yoshdagi o'quvchilarning fikrlash tezligini farqlash.

5. Standartlashganlik (Standardization). Test barcha o'quvchilarga bir xil sharoitda qo'llanishi lozim.

Psixometrik mezonlarga asoslangan pedagogik baxolash tizimi orqali psixometrik testga mos bo'lgan testlar yani Bine-Simon, R. Cattellning intellekt testlari, bilish jarayoniga oid E. G'oziev metodikalari, Strelauning temperament testlari, Kulaginning emotsional rivoj kabi testlari yordamida o'quvchilarning: bilish jarayonari, rivojlanish sur'ati, ijtimoiy-emotsional holati, qobiliyatlari aniq baxolanib boriladi.

O'qituvchi psixodiagnostika natijalariga tayangan holda: individual o'quv rejasini tuzadi; o'quvchi qiyinchiliklarini kamaytiradi; rivojlantiruvchi mashg'ulotlar yaratadi; o'quvchilar bilan individual ishlash strategiyasini belgilaydi. Bu bosqich B.G. Ananyevning "shaxsni tizimli o'rganish" konsepsiyasiga asoslanadi. A. Anastazining fikriga ko'ra, noto'g'ri tanlangan diagnostik vosita: noto'g'ri pedagogik qarorlar; o'quvchida past o'z-o'zini baholash; noto'g'ri rivojlantiruvchi dasturlar; xatoli xulosalar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Shu bois boshlang'ich ta'lim pedagogi har bir diagnostik vosita psixometrik mezonlarga mos ekaniga ishonch hosil qilishi zarur.

Psixodiagnostik metodlarni ilmiy asos — psixometrik mezonlar asosida qo'llash boshlang'ich ta'limda o'quvchining shaxsiy va intellektual rivojini aniq baholash uchun zarurdir. Ishonchlilik, validlik, obyektivlik va standartlashganlikka mos kelgan diagnostik vositalar o'quvchilarni chuqur o'rganishga, ta'lim jarayonini individuallashtirishga va pedagogik qarorlarni ilmiy asoslashga xizmat qiladi. Diagnostika natijalarining to'g'ri talqini o'qituvchiga ta'lim sifati va o'quvchi rivojlanishidagi muvaffaqiyatni ta'minlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anastasi A. Psychological Testing. New York: Macmillan, 1988.
2. Messick S. Validity of Psychological Assessment. American Psychologist, 1995.
3. Cattell R. Abilities and Their Measurement. 1995.
4. Ananyev B.G. Chelovek kak predmet poznaniya. Moskva, 2001.
5. G'oziev E. Bolalar psixologiyasi. Toshkent, 2010.
6. Jabborov E. Psixodiagnostika asoslari. Toshkent, 2019.
7. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S. Pedagogik diagnostika. Toshkent, 2017.
8. Kulagin Yu.I. Psixodiagnostika osnovy i metody. Moskva, 2005.